



## “AMERIKA FOJIASI” VA “ODAM BO‘LISH QIYIN” ROMANLARIDA MUALLIF IJODIY INDIVIDUALLIGI

**Normatov Rixsimurod Qo‘chqor o‘g‘li,**

Abdulla Qodiriy nomidagi

Jizzah davlat pedagogika universiteti

tayanch doktoranti

[risqimurodnormatov@gmail.com](mailto:risqimurodnormatov@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0002-4549-8028>

**Annotatsiya.** Maqolada “Amerika fojiasi” va “Odam bo‘lish qiyin” romanlarida muallif ijodiy individualligi masalasi atroflicha o‘rganilgan. Xususan, “Amerika fojiasi”da real voqelikni detallashtirib tasvirlash, “Odam bo‘lish qiyin” romanida tipiklashtirib ifodalash yetakchilik qilishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, “Amerika fojiasi”da badiiy syujet chizig‘ida xronologik, konsentrik, retrospektiv, assostsiativ bayon usullari yetakchilik qilsa, “Odam bo‘lish qiyin”ni xronologik syujet tashkil etishi tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** roman kompozitsiyasi, badiiy syujet, obrazlar tizimi, realizm, naturalizm, dinamik prinsip, tipologik prinsip, analitik prinsip, badiiy konflikt, monolog, dialog, portret, peyzaj, xronotop.

**Abstract.** The article comprehensively studies the issue of the author's creative individuality in the novels "American Tragedy" and "It's Hard to Be human." In particular, special attention is paid to the fact that in "American Tragedy" the detailed description of real reality prevails, and in the novel "It's Hard to Be human" the typical representation prevails. It is also studied that while in "American Tragedy" the chronological, concentric, retrospective, associative narrative methods prevail in the artistic plot line, the chronological plot of "It's Hard to Be human" is formed by the chronological plot.

**Keywords:** novel composition, artistic plot, system of images, realism, naturalism, dynamic principle, typological principle, analytical principle, artistic conflict, monologue, dialogue, portrait, landscape, chronotope.



### **Kirish.**

“Odam bo‘lish qiyin” va “Amerika fojiasi” romanlarida syujet, obraz tipologiyasini kengroq yoritishda ijodiy individuallik tayanch omillardan biri sanaladi. Negaki, har qanday adabiy-estetik hodisani tipologik o‘rganishda analogik jihatlarni belgilash bilan birga, o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash nazarda tutiladi. Jumladan, badiiy asarning syujet, obraz singari poetik komponentlarini tipologik nuqtayi nazardan tadqiq qilishda tarixiylik, an’anaviylik, o‘xshashlik va individuallik kabi omillarga e’tibor qaratish talab qilinadi. Bu xususida adabiyotshunos Suvon Meli shunday yozadi: “...birinchidan, har qanday o‘xshashlik hech qachon tugal, ya’ni ayniy bo‘lmaydi, o‘xshashlikda muayyan daraja, me’yor bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘xshashlik hamisha farqli jihatlari, tafovut bilan yonma-yon yuradi. O‘xshashlikni ko‘rib, tafovutni payqamaslik fikr maromida xatolikka, masala mohiyatini to‘liq anglab yetmaslikka olib kelishi mumkin. Tipologik tadqiqotda o‘xshashlik dastlabki, ilk tayanch vazifasini o‘taydi. Keyingi, ya’ni asosiy bosqichda jarayon quyidagi tarzda kechadi: o‘xshashlik – tafovut – tafovut-o‘xshashlik = hodisani sintezlashgan mohiyati” [Мели С. 5:338].

Shunga ko‘ra, “Odam bo‘lish qiyin” va “Amerika fojiasi” romanlari misolida ijodiy individuallik muammosini tadqiq qilish masala mohiyatini kengroq o‘rganishga imkon beradi. Ma’lumki, dunyoda hech bir narsa aynan bir-birini takrorlamaganidek, har qanday o‘xshashlik mohiyatida ham tafovut yashirin bo‘ladi. Ya’ni o‘ziga xoslik tipologiya muammosi sifatida ijodiy individuallikni namoyon qiladi. Bu haqida adabiyotshunos O‘ral Nosirov yozadi: “Ijodiy individuallik yozuvchi shaxsiyatining sifat jihatidan shakllanishi, o‘zidan “o‘zligi”ni, ijodiy shaxsiyatini topib, ijodiy mustaqillik, qobiliyatining badiiy kashfiyot yaratish bosqichiga, ya’ni badiiy-estetik faoliyatining individuallik fazasiga kirishi. Adabiyot va san’atda umumiy g‘oyalar, hayotiy konsepsiyalar mudom individual-shaxsiy sharhlar asosida konkretlashtiriladi. O‘z navbatida badiiy asarning qimmatini, unga ijodkor qalbi, o‘ziga xosligining qanchalik singdirilganligi ham shu shaxsiyatning ta’sirchanligini taqozo etadi. Ijodiy individuallik yozuvchida davrning ilg‘or kishisi sifatida takomillashib borishini talab etuvchi beto‘xtov o‘shish-o‘zgarishli holat. Yozuvchidagi ma’naviy imkoniyat iste’dod bilan uyg‘un holda ijodiy imkoniyatni qaror toptira boradi. Qachonkim, ijodkor shaxs ijodiy individuallik holatiga ko‘tarilganda uning faoliyati aktivlashgan, umumiy psixofiziologik jarayon, struktura murakkablashgan, badiiy-estetik faoliyat diapozoni kengaygan, ijodga nisbatan talabchanlik va e’tiqod yuksak etapga ko‘tarilgan bo‘ladi” [Ўрол Н. 7:16].

**Tahlil va natijalar.** Mana shulardan kelib chiqib “Odam bo‘lish qiyin” va “Amerika fojiasi” romanlarida ijodiy individuallik muammosi o‘rganilganda bu ikki asarning o‘ziga xos xususiyatlari oydinlashadi. Bu esa, avvalo, muallif shaxsiyati, ijodiy niyati badiiy konsepsiyasi, ikkinchidan, romanlarda tasviri keltirilgan mahalliy kolorit, milliy xarakter, davr ruhi, ijtimoiy-



iqtisodiy va siyosiy vaziyat kabilar ijodiy individuallikni ochiqlashda muhim sanaladi. Uchinchidan, epik ko‘lamdorlik, badiiy ritm maromi, poetik nutq shakllari ikki romanga xos xususiyatlarni tasniflab tadqiq qilishga asos bo‘ladi. Shulardan kelib chiqib romanlarda ijodiy individuallik muammosiga e‘tibor qaratilsa, quyidagilar oydinlashadi.

1. “Amerika fojiasi” “Odam bo‘lish qiyin” romanidan farqli ravishda uch qismdan tashkil topganligi, shunga ko‘ra romanda syujet va obrazlar tizimi kengayib psixologik tasvirni ortib borishi ko‘zga tashlanadi. “Odam bo‘lish qiyin”da esa, badiiy bayondagi muxtasarlik, kartenalarning tez-tez almashib turishi, kompozitsion sathda xronologik syujetning yetakchiligi ijodiy individuallikni tahlil va talqin qilishga asos bo‘ladi.

2. “Odam bo‘lish qiyin” romanida “Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin” konsepsiyasi yotsa, “Amerika fojiasi”da inson va jamiyat munosabati, yoshlar ma‘naviyatidagi inqiroz bosh planda turadi. Ayni jihat roman sarlavhasi va muqaddimasidan tortib xotimasiga qadar yetakchilik qiladi. Adabiyotshunos D.Quronov shunday yozadi: “Epik asar qurilishini tadqiq etishda matn kompozitsiyasi, syujet kompozitsiyasi, personajlar sistemasi, badiiy vaqt va zamon, rivoya kompozitsiyasi, nuqtayi nazar kompozitsiyasi kabi masalalar diqqat markazida turadi” [Quronov D. 2:183]. Ko‘rinadki, olim badiiy asar qurilishini tashkil etuvchi nazariy komponentlarga diqqat qaratadi. Har qanday asarning tashqi tomondan qurilishi, ma‘lum qism va boblarga ajratilishi, sarlavha, epigraf, kiritma hikoyat va rivoyat, muqaddima va xotima, izoh kabilar nazarda tutiladi. Badiiy asar yaratilayotgan vaqt, ya‘ni ijod jarayonida muallif badiiy niyatiga muvofiq kompozitsion yaxlitlikda mazmunni ifodalash ko‘zda tutiladi. Masalan, “Odam bo‘lish qiyin” romani kompozitsion jihatdan 23 ta qismga ajratilgan, ammo sarlavha qo‘yilmagan. O‘.Umarbekov yuqoridagi badiiy konsepsiyasini ochiqlashda dastlab, roman muqaddimasida “Shoh Muslim” rivoyatiga murojaat qiladi. Ushbu rivoyat yozuvchining badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi protekst sifatida namoyon bo‘ladi. Romanda kelajagiga katta umid bilan qaralgan Abdulla va rivoyatdagi shahzoda qismati o‘zaro tutashadi. Ko‘proq Abdulloning kelajakda olim bo‘lishiga urg‘u beriladi. Adabiyotshunos Azimjon Rahimov o‘zbek romanlarida uchraydigan kiritma hikoyatlarni bajaradigan vazifasiga ko‘ra ikki toyifaga ajratadi: “Rivoya xususiyatlariga qarab hozirgi o‘zbek romanlarida uchraydigan qistirma novellalarni ikki toyifaga bo‘lish mumkin: avtor tilidan beriladigan qistirma novellalar hamda personajlar tilidan beriladigan qistirma novellalar. Avtor nutqi vositasida beriladigan qistirma novellalar o‘z tabiati bilan retrospeksiyaga yaqin bo‘lib, voqealarning oldingi holatidan xabar beradi, sodir bo‘layotgan jarayonlarning sabablarini ochadi. Personajlar nutqi orqali beriladigan qistirma novellalar esa hikoyachi – personajning yoki hikoyachi personaj tilga olayotgan shaxs xarakteri yoxud taqdirining u yoki bu tomonini ochadi” [Раҳимов А. 6:68]. “Odam bo‘lish qiyin” romanida kiritma hikoyatlarning har ikki turini ham uchratish mumkin. Biri yuqorida



aytilganidek, muqadimmada keladi va Abdulla taqdiridagi fojiaiy holatdan ogohlantirish sifatida, ikkinchisi qahramonning otasi tilidan aytilgan hunarli kishining xor bo'lmashligi haqidagi turli ertaklar bo'lib, bu ham Abdulloning taqdiriga ishora qiladi.

3. Bundan tashqari, romanlarda bosh qahramon atrofidagi yoshlar ham bir-biridan farq qiladi. "Odam bo'lish qiyin" romanida bosh qahramon Abdulladan farqli o'laroq, Samad, Qosim, Gulchehra kabilar o'z ahdlariga sodiq qoladilar. Har bir yoshning hayotiy tutumlari, maishiy turmush haqidagi qarashlari va kelajak bilan bog'liq orzu-maqsadlariga e'tibor qaratiladi. Romanda tasvirlangan yoshlarning kelajak haqidagi orzu-umidlari bir xil bo'lishiga qaramay, turli yo'llarni tanlaydilar. Deylik, Mingbuloqdagi oilalar turmush-tarzi, maishiy, ijtimoiy hayot qiyinchiliklari, hayoti mehnatda o'tayotgan odamlar taqdiri yoritiladi. Ayni davr ijtimoiy muhitidan qoniqmaslik, norozilik, mavjud vaziyatni yaxshilashga intilish, harakat turlicha namoyon bo'ladi. Aytaylik, endigina maktabni bitirgan yoshlar orasida Qosimjon bu jihatdan ajralib turadi. U adabiyot o'qituvchisi bo'lishni istaydi. Ayni sababdan shaharda o'qish uning yagona orzusiga aylanadi. "– Qo'yib yubor! – Qosimjon siltanib qo'lini bo'shatgan edi, vino ko'ylagiga to'kilib ketdi. Lekin u parvo qilmay, qolganini qalqib-qalqib ichdi. Keyin gandraklab stolga yaqinlashdi-da, piyolani qo'ydi va birdan yig'lab yubordi. – Abdulla, do'stim! Men sevinchimdan emas, alamimdan ichaman, alamimdan. G'alamislar meni yo'ldan urdi. Bu yerda qolishni istamayman! Tushunasanmi, Abdulla?! Shaharga ketishni istayman, shaharda o'qigim keladi. Bu yerda nima bor? Paxta, paxta va yana paxta!..." [Umarbekov O'. 3:35]. Ko'rinadiki, Qosimjon qishloqdan shaharga ketibgina o'z maqsadiga erishishi mumkin deb hisoblaydi. Onasining qarshiligiga qaramay o'zida jur'at topa olgan Qosimjonga Samad ham, Gulchehra ham havas bilan qaraydi. Mingbuloq odamlari ayni shu turmush-tarziga, ijtimoiy ahvolini yaxshilashga, hayotida qandaydir yangilik qilishga, o'zgarishga intilmaydi. Qosimjon singari Samad va Gulchehralar ham Mingbuloqni yomon ko'rishadi, ammo ularning ketishlariga imkon bermaydigan bir necha sabablar tufayli ketolmaydilar. Shu yerda qolib ko'rimsiz qishlog'ini o'zgartirishga ahd qiladilar. Romanda o'sha davr yoshlarining yana bir tipik Po'lat obrazi yaratiladiki, bu muallif ijodiy niyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Romanda Po'lat to'q oilanining farzandi bo'lganligi uchun uning orzu-maqsadi, kelajak bilan bog'liq intilishlari passiv xarakterda namoyon bo'ladi.

"Amerika fojiasi" romanida esa, yoshlarning dunyoqarashi, orzu-maqsadi, hayotiy tutumi anchayin bir-biriga yaqin deyish mumkin. Ulardagi nafsoniy va hirsiy maylga moyillik, komford hayotga intilish, shuhratparastlik kabilar davr yoshlarining fojiasi sifatida badiiy talqin qilinadi. Masalan, Gortenziya o'z nafsoniy ehtiyojlarini qondirish uchun bir necha yigitlarni chuv tushiradi. Gortenziya Klaydning hayotida ayollarga bo'lgan qiziqishi, nafsoniy xohish-istaklarining ortib borishi, qizning nazarida boshqalardan ustun ekanini isbotlashga intilish



kuchayishiga olib keladi. Klayd bilan Gortenziya to'rt oy davomida munosabatda bo'ladi. Bu vaqt oralig'ida Klayd qizni qayirib olishga, unga hukmini o'tkazishga qancha urinmasin, buni eplay olmaydi. Gortenziya tabiatan badaxloq qiz bo'lgani, buning ustiga bir vaqtning o'zida bir necha yigitlarga qarmoq tashlab yurgani bois Klaydga tutqich bermaydi. Gortenziya Getler, Sparser va Klayd singari yigitlarni bir vaqtda o'zidan uzoqlashtirmas, ularning nafsoniy mayllari bilan o'ynashardi. Klayd xarakteridagi shuhratparastlik, kibr, nafsoniy xohish butun o'y-xayolini egallab oladi. Gortenziyaga ega chiqish payida ota-onasiga, opasi Estaga ham yordam bermaydi, topganini qizni ko'nglini olishga sarflaydi. "Klayd shunda ham u o'zini begona va beparvo tutayotganini sezdi. Yuragi betlamayroq gapni o'rtalaridagi munosabatga, unga bo'lgan ishqiga burib, bitta-yarimtani sevish-sevmasligini so'rganida, u: "Menga hamma yigitlar birday yoqadi", – deb gapni kesdi. Yigitlarning hammasi ham shu qadar jonga yaqin, shu qadar unga e'tiborliki... Asli shunday bo'lishi ham kerak. Bo'lmasa ular bilan tanisharmidi? U holda unaqalarning nima keragi bor? Gortenziyaning serharakat ko'zlari chaqnar, u Klaydning tuyg'ularini qo'zg'atib, boshini chayqab-chayqab qo'yardi" [Драйзер Т. 4:108]. Ko'rinadiki, ushbu personaj roman markaziga kirib keladi va o'z vazifasini bajarib asar syujetidan butunlay tushib qoladi. Bunday personajlar muallif ijodiy niyati, badiiy konsepsiyasini amalga oshirishda muhim bir vosita hisoblanadi. Gortenziyaning roman syujetidagi badiiy funksiyasi esa, bosh qahramon Klaydning hayotida tub burilish yasash, uning roman syujetida keladigan keyingi qizlar bilan munosabatida muhim rol o'ynaydi.

4. Romanlardagi yana bir individual jihat oila a'zolarining o'zaro munosabatida ko'zga tashlanadi. Bunda milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar bosh planga chiqadi. Mualliflarning oilaviy munosabati, ko'rgan-kechirganlari, hayotiy tutumlari Amerika va O'zbek oilalari doirasida badiiy asarga ko'chadi. Har ikki millatga xos oilaviy tutumlar badiiy aks ettiriladi. Er-xotin munosabati, ota-ona mas'uliyati ularning farzand oldidagi burchi, yoshlarning kattalarga bo'lgan hurmat-izzati badiiy aks ettiriladiki, bu ijodiy individuallikni yuzaga chiqaruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

"Odam bo'lish qiyin" romanida badiiy syujet voqeasi va obrazlar tizimi oila negizida poetik idrok etiladi. Oilalar aro munosabat, ularning kundalik turmush-tarzi roman syujeti chiziqlarini bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Har bir oilada vaqti-vaqti bilan ko'rsatilgan quvonch va qayg'u, tug'ilish va o'lim, turli moddiy qiyinchiliklar o'sha oila a'zolarining ma'naviy va ma'rifiy, ruhiy-psixologik holatlarini ochiqlashga qo'l keladi. Otaning kutilmaganda kasal bo'lib qolishi, farzandsizlik muammosi, onaning erta vafot etishi kabilar roman syujeti chizig'idagi tub burilishlarni tashkillashga xizmat qiladi.

"Amerika fojiasi"da esa, voqealar tizmasi personajlarning xatti-harakati oiladan tashqarida ro'y beradi. Ko'p hollarda ularning xatti-harakati oiladan pinhon tutiladi.



Muallifning e'tibori o'sha davrning ijtimoiy hayotiga, inson va jamiyat munosabatiga qaratiladi. Roman voqealari markazida Klayd Grifitslar oilasi turadi. Romanda Klayd va Roberta o'z oilasida diniy tarbiya olib ulg'ayganiga alohida urg'u beriladi. Bu esa Klayd va Roberta hayotidagi ziddiyatni oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** “Amerika fojiasi” va “Odam bo‘lish qiyin” romanlari realizm adabiyoti namunasi o‘laroq analogik mohiyat kasb etadi. Har ikki romanda ham badiiy psixologizmning tasvir prinsiplari quyidagi jihatlari bilan farqlanadi. Ya’ni dinamik prinsip badiiy asarda qahramonlar xarakteri va ruhiy dunyosini ularning xatti-harakati, qiliq-odatlarini, imo-ishoralari bilan ochishga e’tibor qaratsa, tipologik prinsipda esa, inson ichki olami, ma’naviy qiyofasi, xarakter qirrasini ijtimoiy muhit, maishiy hayot voqealari bilan uyg‘un holda ko‘rsatiladi. Analitik prinsipda qahramonlarning botiniy olami, psixikasini ochishda ularning xatti-harakatlari, qiliqlari bilan birga fikriy oqimi, o‘y-kechinmasi, qalb dialektikasiga tayaniladi.

### Adabiyotlar

1. Khamraev K. U. Poetics of the First and Last Sentence in the Story.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari (Matn) – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.280.
3. Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin/ Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B.180.
4. Драйзер Т. Америка фожиаси. Икки жилдлик, II жилд (Русчадан Эркин Носиров таржимаси). Тошкент, Ўқитувчи НМИУ, 2018. – Б.650.
5. Мели С. Сўзу сўз. – Тошкент, Шарк, 2020. – Б.338.
6. Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт). Филол.ф.д...ри, Фаргона 1993. – Б.160.
7. Ўрол Н. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. – Тошкент, Фан, 1981. – Б.260.